


### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

#### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 35 273,9 mlrd. so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 34 758,8 mlrd. so‘mni (102,0 %), o‘rmon xo‘jaligi 461,3 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 53,8 mlrd. so‘mni (108,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,6 % ni tashkil qildi.




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar




O‘rmon xo‘jaligi



Baliqchilik xo‘jaligi

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (3 329,9 mlrd. soʻm), Kitob (3 269,5 mlrd. soʻm), Qamashi (3 193,3 mlrd. soʻm), Yakkabogʻ (2 861,3 mlrd. soʻm), Kasbi (2 711,7 mlrd. soʻm), Qarshi (2 541,8 mlrd. soʻm), Shahrisabz (2 461,2 mlrd. soʻm), Chiroqchi (2 458,7 mlrd. soʻm), Gʻuzor (2 449,8 mlrd. soʻm), va Nishon (2 231,2 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi (304,9 mlrd. soʻm) va Shahrisabz shaharlarni (212,3 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

### **Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi** (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

**Hosil yigʻimi.** 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 539,6 ming tonna sabzavot (13,6 foizga koʻp) yetishtirildi.

### **2025- yilning yanvar-sentabrida xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish**

	Fermer xoʻjaliklari		Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʼati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʼati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʼati, foizda</i>

Kartoshka	40 715	122,1	125 352	95,5	2 250	142,7
Sabzavotlar	143 524	124,7	388 098	109,8	7 948	121,5
Poliz	138 920	105,6	122 358	111,1	3 908	133,7
Meva	99 473	109,5	69 677	91,6	4 199	117,6
Uzum	50 764	106,0	37 545	93,9	1 968	125,5




## Dehqonchilik


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 12 086,1 mlrd. soʻmni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 35,2 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 539,6 ming tonna sabzavotlar (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 13,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 71,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha**  
**sabzavotlar**  
yetishtirish hajmi, *tonna*




### Chorvachilik

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 22 215,1 mlrd. so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2025 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 243,0 ming tonna go'sht (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,0 % ga ko'p), 976,1 ming tonna sut (0,1 % ga ko'p), 409,2 mln. dona tuxum (2,4 % ga kam) va 2 041,8 tonna baliq 6,5 % ga ko'p) ovlandi.




### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tn.</b>	<b>243,0</b>	<b>102,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	9,3	123,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	228,0	101,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,7	100,7
<b>Sut, ming tn.</b>	<b>976,1</b>	<b>100,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	38,3	105,7


	<i>miqdori</i>	<i>davomi</i> <i>o'sish sur'ati,</i> <i>%</i>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	928,6	99,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,2	108,4
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>409,2</b>	<b>97,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	26,2	121,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	268,2	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	114,8	87,3

### Go'sht (tirik vaznda)


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, % da**



**Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Fermer xo'jaliklari


Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 243,0 ming tonna go'sht (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 93,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




## Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda)




## Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari




Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 976,1 ming tonna sut (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 95,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, tonna




### Hajmi, mln.dona




### Tuxum

### O'sish sur'ati, % da



### Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 409,2 mln.dona tuxum (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,4 % ga kam) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 65,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




## Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, *ming dona*




### Baliq


Hajmi, *tonna*



O'sish sur'ati, *% da*




*Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi*




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 041,8 tonna (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,5 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 42,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna**




## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,8 % i fermer xo'jaliklariga, 82,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 17,8 % i fermer xo'jaliklariga, 76,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 11,4 % i fermer xo'jaliklariga, 62,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


- 2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:
- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 801,6 ming boshga yetdi.
  - yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024- yilning 1- oktabriga nisbatan 23,9 ming boshga (1,3 %) ko'paydi.
  - yirik shoxli qoramollar bosh sonining 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 583,5 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2024- yilning 1- oktabriga nisbatan 5,3 ming boshga (0,9 %) ko'paydi.


- sigirlar bosh sonining 87,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 5 160,5 ming boshga yetdi.
- qo'y va echkilarning bosh soni 2024- yilning 1- oktabriga nisbatan 92,3 ming boshga (1,8 %) ko'paydi.
- qo'y va echkilar bosh sonining 82,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

● Fermer xo'jaliklari



● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


## Qashqadaryo viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning bosh soni, ming bosh



## Otlar



### Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 38 443 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2024- yilning 1- oktabriga nisbatan 1 647 boshga (4,5 %) boshga ko'paydi.
- otlar bosh sonining 76,3 % i dehqon va nomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha otlarning bosh soni, bosh




## Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 7 056,0 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2024- yilning 1- oktabriga nisbatan 235,3 ming boshga (3,4 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 62,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh

